

**YOSHLAR TARBIVASIDA MILLIY MUSIQA SAN'ATINING O'RNI VA  
PSIXOLOGIK TA'SIRI**

**Abdullayev Rustam** – dotsent  
*O'zDSMI "Folklor va etnografiya" kafedrasi,  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist*

**Tayanch so'zlar:** musiqa, maqom, milliy qo'shiqchilik, san'at, taraqqiyot, ijtimoiy, yoshlar, jamiyat.

**Ключевые слова:** музыка, маком, национальное пение, искусство, прогресс, общество, молодежь, общество.

**Key words:** music, maqom, national singing, art, progress, society, youth, society.

*San'at bilan oshno bo'lgan yoshlarning hayotga munosabati, milliy urf-odat va umumbashariy qadriyatlarga hurmati baland bo'ladi.*

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev**

**KIRISH**

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar milliy va ma'naviy qadriyatlarning tiklanishida, zamonaviy barkamol insonni shakllantirishda ma'naviy omillar masalasiga yangicha yondashish, shaxsning milliy madaniyati rivojlanishiga o'zgacha munosabatning e'tirof etilishi jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichga kirganligini ko'rsatadi.

“Yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”[1]. Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning ushbu fikrlarida katta ma'no mujassam.

Musiqa bugungi kunda rivojlanib borayotgan jamiyatimiz ma'naviy hayotining ajralmas qismi sifatida muhim ahamiyat kasb etayotganligi sababli, musiqiy ta'limni amalga oshirishda musiqiy faoliyatlar subyektlari (kompozitor, dirijyor, sozanda, xonanda, tinglovchi)ning psixologik xossa va xususiyatlari borasida bilimlarga ega bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi, shiddatkor islohotlar davrida musiqa san'ati xodimlari jamiyatimizda ma'naviyatni yuksaltiradigan, yurtdoshlarimizni bunyodkorlikka chorlaydigan, ularning ruhiyatida optimistik, ko'tarinki kayfiyatni qaror toptiradigan asarlar yaratib xalqimizga takdim etmoqdalar. Zero, musiqa asarlarining ijtimoiy, madaniy va ma'naviy mohiyatini psixologik ta'sir mezonlari nuqtai nazaridan o'rganish davr taqozosidir.

Musiqaning psixologik ta'sir imkoniyatlarini o'rganish borasida amalga oshirilgan tadqiqotlar tarixiga nazar tashlaganda, musiqiy ritm va

ladlarda insonlar qalbini musiqa kayfiyatiga moslaydigan botiniy imkoniyatlar mavjudligi aniqlangan. Aflotun fikricha, shunday musiqa asarlari bo'lishi lozimki, ular insonlarni ijtimoiy talablar darajasiga ko'tarsin. Shuningdek, Arastu inson psixikasini turlicha yo'naltiruvchi musiqiy ladlar haqida yozib, ba'zi ladlarda yangrovchi musiqa insonni rahmdil, yumshoq ko'ngil qilsa, boshqalari kuchli psixik qo'zg'aluvchanlikni hosil qilishini uqtiradi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA  
METODLAR**

Eramizdan avvalgi III asrda yaratilgan tarixiy-adabiy asarda musiqa tartib-intizom va sivilizatsiya ramzi sifatida ta'kidlangan.

Asarda keltirilishicha, musiqa jamiyat hayotini uyg'unlashtirish, ijtimoiy me'yorlarni, iyerarxiyani yaratish uchun zarurdir. Ko'pgina qadimgi sharq mamlakatlarida musiqa tarbiyaning muhim tarkibiy qismi sanalgan va o'rganish zarur hisoblangan fanlar qatoriga kiritilgan. Ziyoli, ma'rifatli barcha insonlar qo'shiq kuylash yoki biror musiqa sozida chalish malakalariga ega bo'lganlar. Musiqaning kuchli ruhiy-hissiy ta'sir vositasi ekanligi va ma'naviy ahamiyati sharq allomalari asarlarida alohida ta'kidlangan. Buyuk olimlar Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Kindiy, Faxriddin ar-Roziy, Mahmud ibn Ma'sud ash-Sheroziy, Muhammad ibn Mahmud al-A'moliy, Zaynulobiddin al-Husayniy, Najmiddin Kavkabiyy Buxoriy, Abdulqodir Marog'iy, Abdulmo'min bin Yusuf al-Urmaviy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Abdulhaq ad-Dehlaviy, Darvish Ali Changiy Buxoriy va boshqa allomalar musiqaning tarbiyaviy ahamiyati to'g'risida qimmatli fikrlar bayon etganlar.

Musiqaning psixologik xususiyatlari Forobiyning «Musiqaga doir katta kitob»,

«Musıqa ritmlari haqida kitob», Ibn Sinoning «Donishnoma», «Musıqa ilmi haqida risola» va boshqa asarlarida, Faxriddin ar-Roziyning «Illmlar xazinasi» qomusida, Urmaviyning «Davrlar kitobi», Al-Husayniyning «Musıqa ilmi va amaliyoti qonunlari», Kavkabi Buxoriyning «Musıqa haqida risola», Abdurahmon Jomiyning «Musıqa haqida risola», Abdulhaq Dehlaviyning «Eshitish masalasi tadqiqoti» va boshqa qator ilmiy asarlarda tahlil qilingan.

Jumladan, - «Forobiy ijrochilik va bastakorlik orqali tinglovchilarga hissiy ta'sir etishning shu qadar yuksak darajalariga erishganki, bu to'g'rida uning soz chalib, kuy ijro etib, odamlarni sarosimaga solganligi, goho jo'shqin kishilarni xomush ahvolga tushirib, ba'zan esa ziyraklarni uxlatib, shinavandalarni hayratda qoldirganligi ma'lum» [2].

Allomaning ko'p ijro etishda tinglovchidagi ruhiy-hissiy imkoniyatlardan kelib chiqqanligi hamda unga kuchli ruhiy ta'sir eta olganligiga ishonch hosil qilamiz. Forobiy milliy musıqa cholg'u sozlarining psixologik ta'sir imkoniyatlariga yuksak baho beradi hamda ijtimoiy turmushda ularni qo'llash bo'ypcha o'z fikrlarinn bayon qiladi, - janglarga mo'ljallangan cholg'u sozlari mavjud, ularning ovozi baland va keskin. Ziyofat va raqslar uchun, to'y va quvnoq yig'ilishlar uchun, muhabbat qo'shiqlari uchun ham maxsus cholg'ular bor. Ayrimlarining tovushi keskin va hazin bo'ladi: bir so'z bilan aytganda, ular shunchalik ko'p, shunchalik xilma-xilki, hammasini sanab o'tish qiyin.

#### NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'rta asr musulmon Sharqi mutafakkirlari madaniyatining adabiyot, she'riyat, musıqa, xattotlik, notqlik singari turlarini o'rganishga oid boy falsafiy-estetik meros qoldirganlar. Ular musiqiy madaniyatni axloq va nafosat mezonlari bilan baholaganlar, uning mohiyatini aynan shu fazilatlar uyg'unligida ko'rganlar [3]. Xorijiy ilmiy tadqiqotlarda milliy musıqa madaniyatimiz, uning mohiyati va mazmuniga oid fundamental

tadqiqotlar G.Riman, E.Praut, G.Katuar tomonidan o'rganilgan. Ular asosan musiqiy tafakkurning mantiqiy-psixologik va funksional jihatlarini tahlil etishgan.

Yurtimizdagi xalqimiz hayotida yuz berayotgan keng qamrovli ijtimoiy-ma'naviy jarayonlarni tasniflash orqali milliy merosimizdagi xalq ijodiyoti va milliy qadriyatlarimizdan bo'lgan musiqiy merosimizni asrab- avaylash, yoshlarning musiqiy tafakkurini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy omillarini tadqiq qilish orqali yoshlar tarbiyasida musiqaning o'rnini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizning yangi rivojlanish bosqichida mamlakatimizda milliy manfaatlariga ustuvor darajada ahamiyat berilishi musiqiy ilmga nisbatan munosabatlarni ijobiy tomonga o'zgarishiga sabab bo'ldi. Bugungi kunda jamiyatimizda musiqaning ijtimoiy – madaniy jihatlarini falsafiy adabiyotlarda shaxs aqliy qobiliyatlarini ifodalovchi musiqiy madaniyat tushunchasi sifatida talqin qilinmoqda [4].

**XULOSA.** Milliy musıqa yoshlarning ma'naviy-estetik didini shakllantirishda muhim vositadir. Musıqa orqali ular o'z tarixini, urf-odatlarini, ota-bobolari madaniyatini chuqurroq anglaydi. Ayniqsa, yoshlik davrida shakllanadigan psixologik muvozanat, emotsional barqarorlik, ichki intizom va ijtimoiy moslashuv kabi jihatlar musıqa vositasida samarali rivojlaniriladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yosh avlod tarbiyasi har bir jamiyatning taraqqiyoti va barqarorligi uchun muhim omillardan biridir. Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularni ma'naviy va ruhiy jihatdan sog'lom shaxs etib voyaga yetkazish dolzarb masalalardan sanaladi. Shu jihatdan qaraganda, milliy musıqa san'ati nafaqat estetik tarbiya vositasi, balki yoshlarning psixologik holatini barqarorlashtiruvchi, ularda milliy o'zlikni anglashga xizmat qiluvchi kuchli omil sifatida e'tirof etiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2016. – 14 b.
2. Matyoqubov O. Og'zaki an'anadagi professional musıqa asoslariga kirish: O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 1983. – 64 b.
3. Malikova S. O'zbek milliy musıqa madaniyati rivojlanish tendensiyalari: kecha, bugun, istiqboli: monografiya. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2024. – 140 b.
4. Nurmuxamedjanov A. M. Yoshlar musiqiy tafakkurini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari // FarDU ilmiy xabarları jurnali. – 2024. – №2. – B. 245.

**REZYUME.** Ushbu maqolada yoshlar tarbiyasida milliy musiqa san'atining tutgan o'rnini hamda uning psixologik ta'siri atroflicha tahlil qilingan. Milliy musiqa yosh avlod qalbida vatanparvarlik, estetik did, ma'naviy barkamollikni shakllantirishda muhim vosita sifatida ko'rib chiqilgan. Shu bilan birga, maqolada musiqaning inson psixologiyasiga, xususan yoshlarning hissiy-ruhiy holatiga ijobiy ta'siri ilmiy-nazariy asoslar hamda amaliy misollar orqali yoritilgan.

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье подробно анализируется роль национального музыкального искусства в воспитании молодежи и его психологическое воздействие. Национальная музыка рассматривалась как важный инструмент в формировании патриотизма, эстетического вкуса и духовного совершенства в сердцах молодого поколения. Вместе с тем, в статье на основе научно-теоретических основ и практических примеров освещается положительное влияние музыки на психологию человека, в частности, на эмоционально-психологическое состояние молодежи.

**SUMMARY.** This article analyzes the role of national musical art in youth education and its psychological impact in detail. National music was considered an important tool in shaping patriotism, aesthetic taste, and spiritual perfection in the hearts of the younger generation. At the same time, the article highlights the positive impact of music on human psychology, particularly the emotional and psychological state of young people, based on scientific and theoretical foundations and practical examples.